

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.Jo'rayeva</b>	
Firoqiy va Partav .....	314
<b>Z.Teshabojeva</b>	
Abduqayum yo'ldoshning obraz yaratish mahorati .....	318
<b>N.J.Abdusamatova</b>	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash .....	322
<b>Sh.A.Ermatova</b>	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasi" dan foydalanish .....	326
<b>M.J.Jurabojeva</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi .....	331
<b>Sh.M.Usanov</b>	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'rnini.....	334
<b>V.A.Giyosova</b>	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari .....	339
<b>Г.Р.Абдуллаев</b>	
Социокультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
<b>J.Sh.Amayusupov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
<b>M.T.Voxidova</b>	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari .....	350
<b>N.M.Xodjibolayeva</b>	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari .....	354
<b>Sh.M.Muxamedov</b>	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish.....	358
<b>S.I.Raxmatullayeva</b>	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi .....	371
<b>M.A.Junaydullayev</b>	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari .....	377
<b>M.M.Temirova</b>	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari .....	382
<b>M.U.Kurbanov</b>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv .....	387
<b>M.O.Batirkhanova</b>	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari .....	391
<b>M.C.Ганиева</b>	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
<b>I.A.Ismoilov</b>	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida .....	401
<b>D.G'.Zaylobidinova</b>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi .....	405
<b>D.A.Abduraxmonov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir .....	408
<b>M.M.Yunusov</b>	
Universitetlarda "Kimyoviy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari .....	416
<b>G'.M.Alamov</b>	
Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'rnini.....	420

**BADIIY ASARLARDAGI SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASINING  
KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI****КОММУНИКАТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА  
СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ****COMMUNICATIVE-PRAGMATIC FEATURES OF TRANSLATION OF SOMATIC  
PHRASEOLOGICAL UNITS IN WORKS OF ART****Batirkhanova Madina Oybekovna<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)**Annotatsiya**

*Biz tadqiqotimiz davomida badiiy tarjimadagi pragmatik munosabatlar semantik munosabatlar, asl matnning tahlil qilish va tarjima tilidagi ekvivalent matn yaratishda bir xil darajada ko'rib chiqildi. Tarjima pragmatikasi so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotga qaratilganligi, muloqot ishtirokchilarining esa ma'lum bir madaniy, milliy guruhlariga tegishliligi ushbu madaniyat va millatning o'ziga xos xususiyatlari muloqot jarayonida namoyon bo'lishi mumkinligini hamda tarjimada asl matn mohiyatini ko'rsatib, muloqot qiluvchilarning madaniy va milliy o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilindi. Tarjima jarayoniga ekstralingvistik omillarning ta'siri, ya'ni matnning o'ziga xos xususiyatlarini, uning lug'aviy mazmuni va asosiy g'oyasini qabul qiluvchiga yetkazadigan tarzda aks ettirilishi, matnning pragmatik imkoniyatlarini hisobga olgan holda, uning kommunikativ niyati va bu jihat tarjimada qanday namoyon bo'lishi asosli tarzda ko'rsatildi.*

**Аннотация**

*В нашем исследовании прагматические отношения в художественном переводе рассматривались на одном уровне с смысловыми отношениями, анализом исходного текста и созданием эквивалентного текста на языке перевода. Прагматика перевода ориентирована на общение между говорящим и слушающим, а участники разговора принадлежат к определенным культурно-национальным группам. Проанализированы культурно-национальные особенности собеседников. Влияние экстралингвистических факторов на процесс перевода, т. е. отражение особенностей текста, его лексического содержания и основной идеи таким образом, чтобы донести до реципиента с учетом прагматических возможностей текста его коммуникативную направленность и то, как этот аспект переводится, было обоснованно показано.*

**Abstract**

*In our study, pragmatic relations in fiction translation were considered on the same level as semantic relations, analysis of the source text and creation of an equivalent text in the target language. The pragmatics of translation is focused on the communication between the speaker and the listener, and the participants of the conversation belong to certain cultural and national groups. The cultural and national features of the interlocutors were analyzed. The influence of extra-linguistic factors on the translation process, i.e. reflecting the features of the text, its lexical content and main idea in such a way as to convey its communicative orientation to the recipient taking into account the pragmatic possibilities of the text. and how this aspect is translated has been reasonably shown.*

**Kalit so'zlar:** kommunikativ-pragmatika, somatik frazeologizmlar, lingvomadaniy xususiyatlar, kommunikativ ta'sir, pragmatika, konnotativ ma'no, milliy mentalitet, emotsional-ekspressivlik, realiya.

**Ключевые слова:** коммуникативно-прагматика, соматическая фразеология, лингвокультурные особенности, коммуникативное воздействие, прагматика, коннотативное значение, национальный менталитет, эмоционально-выразительность, реальность.

**Key words:** communicative-pragmatics, somatic phraseology, linguocultural features, communicative impact, pragmatics, connotative meaning, national mentality, emotional-expressiveness, reality.

**KIRISH**

So'nggi yillarda FBlarining turli kommunikativ sharoitlarda ishlashi bilan bog'liq masalalarga qiziqish yanada kuchaydi. Bu o'rinda FBlar yordamida nutq faoliyatini o'rganishga qaratilgan frazeologiyani kommunikativ-pragmatik jihatlarini o'rganish alohida o'rin tutadi. Nutq faoliyati voqeliklardan biri sifatida qarala boshlandi. "Til nafaqat dunyoning manzarasini chizadi, balki til va nutq voqelikdagi ko'plab hodisalarni tushunish kalitini ham beradi". Munosabatlarning bu yo'nalishi pragmatik tadqiqotlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

FBlarining kommunikativ va pragmatik xususiyatlaridan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, ularning asosiy pragmatik parametrlari ekspressivlik, kontseptuallik va subtekst(yashirin) ma'lumotlardir. Har bir FB ma'lum kommunikativ vazifani bajaradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tarjimashunoslikda frazeologizmlar muammolarini Sh.Balli, V.V.Vinogradov, B.A.Larin, Q.Musayev va N.M.Shanskiy, Retsker, S.Vlaxov va F.Florin, A.Narziqulov kabi tilshunos olimlar tadqiq etganlar .

1930-yilda "pragmatika" (pragma – yun. harakat) atamasi ilk marotaba semiologiya-semiotika (belgilar haqidagi fan)ning bo'limi sifatida qo'llanildi. Rodolbf Karnap (1934) va Charlz Morris(1940) kabi olimlar pragmatika amaliyotining ushbu birinchi bosqichining yorqin nomoyondalaridandir. Pragmatika muayyan nutq jarayonida belgilar va ular ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi semiotikaning bir bo'limidir. Bugungi kunda pragmatikaga til vakillarining muayyan so'zlar va semantik konstruksiyalar orqali o'z munosabatini ifodalash va suhbatdoshining maqsadi (intentsiyasi)ni tushunish darajasi, nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, munosabat bildirish sifatida qaraladi. Ikkinchi bosqich 1950-1960 yillarni o'z ichiga oladi va uning vakillari Djon Lengshou Austin, Djon Rodjers Serl va Paul Gris kabi faylasuflar bo'lsa, uchinchi bosqichda Yakob L. Mey ("Pragmatika jurnali", 1977), Levinson ("Pragmatics", 1983), Jeofrey Lich ("Principle of pragmatic association", 1985) kabi olimlar ushbu sohada katta yutuqlarga erishdi[1,85].

J.Layons pragmatikaning predmetini aniqlash va belgilashga urinib, shunday deydi: "Pragmatika tinglovchining ma'lumotni so'zlovchini xohlagancha qabul qilishga undash uchun muloqotda tegishli til birliklaridan foydalanishini tavsiflaydi"[2,8]. Demak, pragmatiklar shaxslararo muloqotda tilning rolini aniqlash bilan shug'ullanadilar.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

SFBlarning tarjimasida lingvistik va ekstralingvistik holatlarga ham e'tibor qaratish zarur. Ekstralingvistik holatlar bevosita millatning o'ziga xos an'ana, urf-odatlar, madaniyati, tarixi, jug'rofiyasi bilan bog'liq bo'ladi. SFBlarning to'g'ri talqini hamda ular ma'nosini boshqa tilga yetkazib berish uchun tarjimon o'sha millatga xos realiyalarni ham chuqur bilishi zarur.

FBlar ko'pincha tilning so'zlashuv qatlamiga mansub bo'lib, bo'yoqdorligi bilan ajralib turadi. Asar muallifi badiiy asarda FBlarni qo'llaganda muallif va o'quvchi o'rtasida o'zaro bir-birlarini anglash paydo bo'lib, o'quvchi asarda sodir bo'layotgan voqealarga sho'ng'ib, muallif tasvirlayotgan voqea-hodisalarga yaqinlashish sodir bo'ladi. Bu esa o'quvchining badiiy asarga real yondashuviga turtki bo'ladi. Badiiy asardagi sodir bo'layotgan voqea-hodisalar sun'iy, faqat asarda tasvirlangan holda emas, balki haqiqiy, o'quvchining bevosita o'zi ishtirokidagi voqealardek tuyula boshlaydi. Shuning uchun badiiy asarlarda oddiy xalqning o'ziga xos xususiyatlarini bevosita namoyon etish uchun rang-barang til vositalari qo'llaniladi. Ushbu til vositalaridan biri FBlardir. FBlar milliy metalitetni tasvirlovchi vositalardandir.

Har qanday badiiy asar matni, birinchi navbatda, o'z tilida gapiradigan kitobxonda u yoki bu darajada emotsional-ekspressiv ta'sir uyg'otadi va bu kommunikativ ta'sir deb ataladi. Bunday kommunikativ ta'sir tarjimada ham to'laqonli qayta tiklanishi lozim. Asliyat va tarjimadagi kommunikativ ta'sir kommunikativ maqsad orqali belgilanadi. Badiiy matnga xos kommunikativ imkoniyatning o'quvchida uyg'otgan kommunikativ ta'siri orqali asarda pragmatik jihatlar namoyon bo'ladi[3,106].

Badiiy asarlarda SFBlarni uchta turli tizimli tillarda qiyosan o'rganar ekanmiz, bunda uchta tilning har birida ushbu tillarda so'zlovchi millatning mentaliteti va fikrlash tarzidagi o'ziga xos farqlar yaqqol ko'zga tashlanadi. FBlar badiiy asar tiliga semantik ko'rk bag'ishlaydi, ayni paytda, nutqning emotsional-ekspressivligini ta'minlaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, uchta tilning qiyosiy tadqiqida badiiy asarda somatik iboralar o'zbek tilida nihoyatda ko'p qo'llanishi, ingliz va rus tillarida esa ular o'zbek tiliga nisbatan kam ishlatilishi hamda o'zbek tilida somatik frazeologizmlar so'zlovchining niyatini turli ottenkalar orqali ifodalashi ma'lum bo'ldi. Bunda milliy mentalitetning o'ziga xos farqi seziladi.

O'zbek adabiyotida A.Qahhor, A.Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom, P.Qodirov, O.Yoqubov, O'.Hoshimov, Said Ahmad kabi atoqli yozuvchilar yaratgan asarlarda o'zbek xalqi ma'naviyatini, madaniyatini milliy mentalitetini yorqin namoyon etadigan milliy obrazlar mavjud.

Ma'lumki, o'zbek tilida "ko'z" komponentli SFBlar soni talaygina. Ushbu komponentli SFBlar badiiy matnda ham ko'p qo'llangan. Ularning rus tiliga tarjima qilish usullari hamda pragmatik ta'sir tushunchasiga e'tiborimizni qaratamiz.

Shu o'rinda G'.G'ulomning "Shum bola" asarini tahlil qilgan holda, ularga rus va ingliz tillaridagi o'zimizning muqobil variantlarimizni keltirib o'tamiz. Ushbu qissada "ko'z" komponentli juda ko'p iboralar qo'llangan. Jumladan, ko'z tikmoq, ko'ziga issiq ko'rinmoq, ko'zi to'ymaydi, ko'zi tor, ko'zi yoridi, ko'zini moshdek ochmoq, ko'zlari uchib turmagan, ko'ziga qon to'lgan, og'zimdand tushmaydi, boshimdan kechirganlarim, qulog'imdan ketmaydi, quloq solib kabi iboralar hamda ushbu gapdagi: "Novcha yigit suzgan bo'zadan ozgina tatib ko'rib, birinchi oyoqni Sultonga uzatdi." Iboraning rus tiliga tarjimasi "Потом он попробовал процеженное питьё на вкус и протянул чашу Султану" tarzida berilgan[4].

O'zbek tilidagi ikki barmog'ni burunga tiqib bormoq iborasi rus tilida unga muqobil keladigan *без гроша* iborasi *ходи-ил, рабо-отал, только на лохмотья и заработал* iborasi bilan ifoda etilgan. Buning natijasida asarda adib qo'llagan ibora tushunchasidagi asl ko'chma ma'no saqlanmagan. Xuddi shu misolni ingliz tiliga quyidagicha tarjima qilishimiz mumkin:

- *'Oh you... 'he said, drowning in rage, and threw himself at me again with a stick, but I bounced back again. His eyes were so out of his sockets that it seemed that they were about to fall out. What are you, a ragamuffin! he cried, finally having the ability to speak. - What do you want to go home in! And I am ashamed of people! What people will say – I've been working so hard and I'm broke! Woo-woo, for what I was punished by Allah, that I met with you! I'd earn a fair amount of money, buy a robe, a hat with fox fur... If it wasn't for you, I'd have a ram, and who would have a ram - in time, a horse, a horse - could buy a camel..(muallif tarjimasi).*

Ingliz tiliga tarjimamizda iboraning muqobil variantini obrazlashtirilgan tarjima usuli orqali berar ekanmiz, ushbu iborada somatizmlar ishtirok etmagani tarjimaning konnotativ ma'nosiga ta'sir etmaganini ko'rishimiz mumkin.

X.Xantemirova "eng yaxshi so'zma-so'z tarjima" ham asliyat boyligi va o'ziga xosligini to'la-to'kis talqin etishga o'zlik qiladi, deb ta'kidlaganidek, albatta, tarjimon SFBni adekvat tarjimasini bera olmasa-da, uning muqobil variantini tarjima tilida berishga harakat qilishi lozim.

#### XULOSA

Demak, mutarjim tarjima jarayonida o'z e'tiborini til vositalarining ma'nosi bilan birga, ushbu til vositalari anglatayotgan madaniy tushunchalarni ham yetkazib bera olishga qaratmog'i kerak. A.A.Golyev tarjima jarayonida FBlarning ikki turini ajratib beradi: ya'ni ularning o'zaro farqi ko'zga tashlanmasligini, ikkala tilda ham bir xil ifodalanishini, madaniyatlarning turlichaligini ifodalovchi FBlar har qaysi tilda o'zgachaligi bilan ajralib turishini. Shuning uchun aynan madaniyat bilan bog'liq bo'lgan SFBlning tarjimasida madaniyatga xos tushunchalar boshqa tilning tushunchalari orqali ifodalanishi kerak. Kontekst metaforik ma'no yoki asl, ya'ni to'g'ri ma'noda ifodalanishi kerak. SFBlnar beradigan metaforik ma'no boshqa tilga o'girilayotganda hamma vaqt ham metaforik ma'noni anglatmaydi, ayrim xolatda metaforik ma'no anglatayotgan FB boshqa tilda to'g'ri ma'no anglatuvchi leksemalar orqali ifodalanadi.

Tillararo diskursiv munosabatda pragmatik muammolar yuzaga kelar ekan, mutarjimning vazifasi tarjima jarayoni maqsadini to'g'ri anglagan holda, uni tarjima talabi, me'yori asosida kayta yaratishdan iboratdir. Har qanday tarjimaning pragmatik vazifasini amalga oshirish tarjimondan axborot qabul qiluvchining estetik ta'sirlanish darajasini birinchi o'ringa qo'yishini talab kiladi. Zero, haddan ortiq aniqlik pragmatik noaniqlikka olib kelishi, yozuvchi ko'zda tutgan ta'sirchanlikni yaratishga o'zlik qilishi mumkin.

Xulosa qilishimiz mumkinki, pragmatik omillar ekvivalentlikning tarkibiy qismi bo'lib, ularning kayta yaratilishi tarjimaning asliyatga kommunikativ jihatdan to'liq mosligini ta'minlaydi. Tarjimaning asliyatga pragmatik adekvatligi asliyat va tarjima sohiblarining bir xil axborotga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Арутюнова Н.Д., Падучева Е.В. Вступительная статья // Новое в зарубежной лингвистике. Лингвистическая прагматика. Вып. XVI. – М., 1985. – С.504.
2. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1955. – С.316
3. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография: избранные труды – М.: Наука, 1986. – С.212
4. Ларин Б.А История русского языка и общее языкознание. – М., 1977. – С.124
4. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – Б.152

5. Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент, 1966. – Б.93
6. Шанский Н.М., Бистрова Е.А., Аликулов Т. Рус тилидаги 700 фразеологик ибора. – Москва, 1982. – Б.78
7. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – Россия, 1974. – С.56,58
8. Влахов С., Флорин. Непереводимое в переводе. – М.: Межд. отношения, 1980. – С.152 Нарзикулов А. Французская фразеология и вопросы французско-узбекского художественного перевода: АКД. – Л., 1969. – С.18.
9. Carnap Rudolf. Der logische Syntax der Sprache. – Vien, 1934. –P.175
10. Morris Ch. Signs, language and behaviour / Ch. Morris. – N.Y.: Pretence Hall, 1946. – P.165
11. Моррис Ч.У. Основания теории знаков / Ч.У. Моррис // Семиотика: сб. статей; пер. с англ., франц., испанск. – М.: Радуга, 1983. – С.37-89.
12. Austin John Langshaw. How to do things with words. – Oxford: At the Clarendon Press, 1962. – P.85
13. Серль Дж., Вандервекен Д. Основные понятия исчисления речевых актов // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVIII. – М.: Прогресс, 1986. – С.242–263
14. Грис. Х.П. (1957). "Значення", Філософський огляд, 66 (3). Передруковано як розділ 14 «Грис 1989». – С.213–223; Мей Джейкоб Л. Прагмалінгвістика: теорія і практика Дослідження Расмуса Раска з прагматичної лінгвістики 1., 1979. ISBN 90-279-7757-7. Енциклопедія site:uk.wikisko.ru; Levinson S. Pragmatics. – Cambridge, 1983. –192 p.
15. Leech G.N. The Principles of Pragmatics. – N.-Y.: Longman, 1985. – P.150.
16. Soyibnazarov N. The role of pragmatics in translation. [Journal.jspi.uz](http://Journal.jspi.uz) Jizzakh, – 2021. – P.8.
17. Раҳимов Ф. Таржима назарияси ва амалиёти: дарслик-мажмуа / Муалл. Ф.Раҳимов. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б.106.
18. Ғафур Ғулом. Шум бола. Қисса. – Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2018. – Б.72.
19. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – Б.152.
20. Гольев А.А. Лингвокультурологические и лингвотипологические критерии в переводе: аспекты функциональной взаимосвязи (на материале переводов произведений Я. Гашека на английский, русский и эстонский языки): Дисс. ... канд. фил. наук: 10.02.20